

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI NOMIDAN
HUKM

2021 yil oktabr oyining 12 kuni, jinoyat ishlari bo'yicha Qarshi shahar sudi o'z binosida, ochiq sud majlisida, raislik qiluvchi sudya Sh.Eshimovning raisligida, sudya yordamchisi O.Hamidovning kotibligida, Qarshi shahar prokurorining katta yordamchisi N.Karimov, sudlanuvchining himoyachisi advokat Z.G'oyibnazarov, jabrlanuvchi M.Qoriyevning ishtirokida, sudlanuvchi Haqberdiyev Raufjon Murodulloyevichga nisbatan №1-1801-2104/497-sonli jinoyat ishini ko'rib chiqdi.

Ish hujjatlariga ko'ra:

Haqberdiyev Raufjon Murodulloyevich - 1985 yil 13 oktabr kuni Mirishkor tumanida tug'ilgan, millati o'zbek, O'zbekiston Respublikasi fuqarosi, ma'lumoti o'rta-maxsus, oilalik, 2 nafar farzandi bor, muqaddam sudlanmagan, "Xaqberdiyev Murodulla" MCHJda ish yurituvchi, Mirishkor tumani, Jeynov qishlog'ida yashaydi, ehtiyot chorasi sifatida 2021 yil 27 avgust kundan boshlab qamoqda saqlanayotgan, ayblov xulosasi nusxasini 2021 yil 28 sentabr kuni olgan,

O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksi 219-moddasi 2-qismi bilan ayblangan.

Sud, sudlanuvchi, jabrlanuvchi va guvohlarning ko'rsatuvlarini eshitib, davlat ayblovchisi, himoyachining muzokara nutqlari va sudlanuvchilarning oxirgi so'zini tinglab, ish bo'yicha to'plangan dalillarni atroflicha o'rganib, muhokama qilib, jinoyat ishi hujjatlarini tahlil qilib, quyidagilarni

A N I Q L A D I :

Haqberdiyev Raufjon Murodulloyevich 2021 yil 25 avgust kuni Qarshi shahar "Kunchiqar" mahalla fuqarolar yig'ini, Mustaqillik shoh ko'chasida joylashgan "Viktoriya restoran bar" tungi klubiga ovqatlanish uchun borib, u yerda o'zining tanishi A.Bobomurodov bilan birgalikda spirtli ichimlik iste'mol qilib, shu kuni soat 22:30 da Qarshi shahar IIO FMB 1-sonli IIB XPG profilaktika inspektori M.Qoriyev va boshqalar o'z xizmat vazifasini bajarish maqsadida jamoat tartibini saqlash va shahar hududida belgilangan karantin talablariga amal qilinishini ta'minlash maqsadida tungi klubga kelganida profilaktika inspektori M.Qoriyevning IIB binosiga borish haqidagi qonuniy talablariga bo'ysunmasdan, tungi klub tashqarisiga chiqib, jamoat joyi hisoblangan Mustaqillik shoh ko'chasi yonida uni uyatsiz so'zlar bilan haqorat qilib, baqirib, fuqarolar ko'z o'ngida uni obro'sizlantirib, o'zining xizmat vazifasini bajarayotgan ichki ishlar xodimiga faol qarshilik ko'rsatib, tungi xizmatga jalb qilingan avtobusga olib chiqmoqchi bo'lgan vaqtida qochib ketishga harakat qilib, M.Qoriyevning o'ng qosh qismiga urib, unga tan



jarohati yetkazgan.

Qashqadaryo viloyat sud tibbiyot ekspertiza byurosining 2021 yil 27 avgust kunidagi 2884/305-Xam-sonli xulosasiga ko'ra, M.Qoriyevning tana jarohatlari – o'ng ko'z yuqori qovoq sohalarida qontalashlari va shu sohadagi shilinmalari ko'rinishidagi jarohatlar mavjud bo'lib, og'irlik darajasi bo'yicha sog'liqni qisqa muddatga buzilishiga sabab bo'lmagan yengil shikast guruhiga kirishi ko'rsatilgan.

Sud majlisida sudlanuvchi R.Haqberdiyev, unga e'lon qilingan aybga qisman iqrorligini bildirib, quyidagilarni, ya'ni Mirishkor tumanida tadbirkorlik faoliyati bilan shug'ullanib kelishini, 2021 yil 25 avgust kuni o'rtog'i A.Bobomurodov bilan Qarshi tumanidagi "O'zbekim" to'yxonasiga to'yga borishib, spirtli ichimlik iste'mol qilishib, soat 21:00 da to'yxonadan chiqishib, Qarshi shahridagi "Viktoriya" tungi klubi kechki vaqtda ishlayotganligi sababli ovqatlanish uchun borishib, ovqatlanib, yana spirtli ichimlik iste'mol qilishganini, shu vaqtda ichkariga IIB xodimlari kirishganini, shu vaqtda restoran xizmatchilari restoran yopilganligini va xizmat haqini to'lashni aytishganini, shu vaqtda restoranda xizmat haqqi to'lab tashqariga chiqishgan vaqtda, shu yerda xizmat o'tayotgan IIB xodimlari ularga IIB binosiga olib borishini va shu sababli restorandan uzoqroq joyda turgan avtobusga chiqishini aytishganini, u shu vaqtda avtobusga chiqmasligini, yashash uyiga ketish uchun taksi avtomashinasi chaqirib qo'yganligini aytib yurib keta boshlaganini, shu vaqtda IIB xodimi kelib avtobusga chiqishini aytganini, u avtobusga chiqayotgan vaqtda yiqilib tushganini, mast holatda bo'lganligi uchun avtobusda notanish IIB xodimi M.Qoriyevning qosh sohasiga urib yuborib, shikast yetkazganini, hozirgi kunda sodir qilgan harakatidan pushaymonligini, jabrlanuvchi IIB xodimi M.Qoriyevdan kechirim so'rashini, suddan unga nisbatan ozodlikdan mahrum qilish bilan bog'liq bo'lmagan yengilroq jazo tayinlashni so'rab, ko'rsatuv berdi.

Sudlanuvchi R.Haqberdiyevning sud hukmida ko'rsatilgan jinoyatni sodir etganligi, o'zining aybiga iqrorlik va pushaymonlik bildirib bergan ko'rsatuvidan tashqari:

-jabrlanuvchi M.Qoriyevning sudda Qarshi shahar IIO FMB 1-son IIB HPB profilaktika katta inspektori lavozimida ishlab kelayotganligi, 2021 yil 25 avgust kuni tungi soat 22:30 da Qarshi shahar 1-sonli IIB navbatchilik qismining ratsiya aloqa vositasi orqali Qarshi shahar, Kunchiqar MFY, Mustaqillik shoh ko'chasida joylashgan "Viktoriya resto bar" tungi klubiga yetib borish bo'yicha ko'rsatma berilganini, yonida bo'lgan profilaktika inspektori O.Boboyev bilan birgalikda belgilangan manzilga borishganini, ular tungi klubga borgan vaqtda klub tungi vaqt bo'lishiga qaramasdan faoliyat yuritayotganligi, klubda 20-30 nafar mijozlar o'tirganligi, ichkarida bo'lgan fuqarolar va tungi klub xizmatchilari tomonidan karantin qoidalariga rioya etilmaganligi aniqlanganini, shundan keyin ular o'sha yerda bo'lgan fuqarolardan shaxsiga oid hujjatlar so'raganida ular tomonidan biror bir hujjat taqdim etilmaganini, so'ng IIB xodimlari bilan birgalikda ularning



shaxsiga aniqlik kiritish maqsadida Qarshi shahar IIO FMB binosiga taklif qilinganida, tungi klub xizmatchilari va bir nechta mijozlar ularning talabini bajarib, klub tashqarisiga chiqishib va tungi xizmatga jalb qilingan xizmat mashinasiga chiqishganini, “Viktoriya resto bar” tungi klubida bo‘lgan bir guruh shaxslar tungi klub tashqarisida spirtli ichimlik iste‘mol qilganligi sababli ularning qonuniy talabini bajarmasdan, IIB xodimlarini har xil so‘zlar bilan haqorat qilib, faol qarshilik ko‘rsatib, IIB idorasiga borishdan bosh tortishganini, u o‘sha yerda bo‘lgan hozirda unga notanish bo‘lgan ismini dastlabki surishtiruv vaqtida bilgan R.Haqberdiyevni o‘sha yerda bo‘lgan IIBga tegishli avtobusga chiqishini so‘rab uni avtobus tomonga olib borishganini, shu vaqtda mast holatda bo‘lgan R.Haqberdiyev avtobusga chiqishdan bosh tortib, IIB xodimlarining qonuniy talabiga bo‘ysunmasdan ularga faol qarshilik ko‘rsata boshlab IIB binosiga borishdan bosh tortib, baqir-chaqir qilib, o‘sha joyda bo‘lgan fuqarolarni yonida IIB xodimlarini haqorat qilib, ularga qarshilik ko‘rsata boshlaganini, u R.Haqberdiyevga uni avtobus o‘rindig‘iga o‘tirib olishini so‘raganida yana qarshilik ko‘rsatib, uni o‘ng ko‘zining tepasiga ya‘ni qovoq qismiga mushtlab urib yuborganini, shu vaqtda IIB xodimi O.Boboyev qoshi qonayotganligini aytganini, u qoshini ushlab qonayotganligini bilib, avtobusdan pastga tushib ketganini, ular tomonidan R.Haqberdiyevga hech qanday jarohat yetkazilmaganini, hozirgi kunda R.Haqberdiyev sodir qilgan harakatiga chin qo‘ngildan pushaymon bo‘lib, undan kechirim so‘raganligini inobatga olib, unga nisbatan qonuniy yengillik berib, ozodlikdan mahrum qilish bilan bog‘liq bo‘lmagan jazo tayinlashni so‘ragan ko‘rsatuvi;

Guvoh S.Serobovning sudda Qarshi shahar IIO FMB 1-son IIB HPB profilaktika inspektori lavozimida ishlab kelayotganligi, 2021 yil 25 avgust kuni tungi soat 22:15 da jamoat tartibini saqlash maqsadida Qarshi shahar 1-sonli IIB xodimlari bilan birgalikda Qarshi shahar, Kunchiqar MFY, Mustaqillik shoh ko‘chasida joylashgan “Viktoriya resto bar” tungi klubiga borganini, ular tungi klubga borgan vaqtida klub tungi vaqt bo‘lishiga qaramasdan faoliyat yuritayotganligi, klub ichkarisida 20-30 nafar mijozlar o‘tirganligi, ichkarida bo‘lgan fuqarolar va tungi klub xizmatchilari tomonidan karantin qoidalariga rioya etilmaganligi aniqlanganini, shundan keyin u tegishli hujjatlarni rasmiylashtirish maqsadida ushbu fuqarolardan shaxsiga oid hujjatlar so‘raganida ular tomonidan biror bir hujjat taqdim etilmaganini, so‘ng, u birinchi va ikkinchi qavatda bo‘lgan ishchi xodimlarni va mijozlarni tashqariga chiqarganini, tashqarida fuqarolarni IIB binosiga olib borish uchun tungi xizmatga jalb qilingan avtobus bo‘lganligi sababli ular tungi klubda bo‘lgan fuqarolarning shaxsiga aniqlik kiritish maqsadida Qarshi shahar IIO FMB binosiga taklif qilishganini, tungi klub xizmatchilari, bir nechta mijozlar ularning talabini bajarib, xizmat mashinasiga chiqishganini, “Viktoriya resto bar” tungi klubida bo‘lgan bir guruh shaxslar spirtli ichimlik iste‘mol qilganligi sababli ularning qonuniy talabini bajarmasdan, har xil so‘zlar bilan haqorat qilib, faol qarshilik ko‘rsatib, IIB idorasiga borishdan bosh tortishganini,



ular fuqarolarni avtobusga olib chiqqan vaqtida unga keyinchalik ma'lum bo'lgan R.Haqberdiyev tinchlantirishga harakat qilgan profilaktika inspektori M.Qoriyevning ko'z qismiga urib yuborganini, M.Qoriyevning qoshi jarohat olganligi sababli avtobusdan pastga tushganini, u o'z xizmat vazifalarini bajarishni davom ettirgani haqidagi ko'rsatuvi;

Guvoh Bobomurodov Akmal Yusupovichning sudda 2021 yil 25 avgust kuni hamqishlog'i R.Haqberdiyev, ukasi Bobomurodov O'tkir va Annayev Dilmurod bilan birgalikda Qarshi tumani Mirmiron mahallasidagi to'yxonaga to'yga borishganini, u yerda spirtli ichimlik iste'mol qilib, soat 21:00 da chiqib, u va R.Haqberdiyevlar va qishloqda yashovchi tanishlari bilan Qarshi shahridagi "Viktoriya" restoraniga borishganini, u yerga biroz vaqt o'tganidan keyin bir nechta IIB xodimlari kelib, restoranga bo'lgan barcha xodimlarni va mijozlarni tashqariga olib chiqib ketishganini, ular xam tashqariga chiqishganini, tashqariga bir nechta IIB xodimlari barcha fuqarolarni avtobusga chiqishini so'rab turganini, ularga xam avtobusga chiqishlarini shaxslariga aniqlik kiritish uchun Qarshi shahar IIB binosiga olib borishlarini aytishganini, u ularning talabi bo'yicha o'sha yerda turganlar avtobusga chiqqanini, o'sha vaqtda mast holatda bo'lganligi sababli R.Haqberdiyev qachon avtobusga chiqqanligini bilmasligini, u xam, R.Haqberdiyev ham mast holatda bo'lib o'zining barcha harakatlarini bajara olmasligini, u R.Haqberdiyevni IIB xodimlari majburlab avtobusga olib chiqqanligini ko'rmaganini, R.Haqberdiyev IIB xodimi M.Qoriyevni qosh sohasiga urib jarohat yetkazganligini aniq ko'rmaganligi haqidagi ko'rsatuvi;

Sudlanuvchi R.Haqberdiyevning sodir qilingan jinoyatdagi aybi, uning aybiga iqrorklik bildirib bergan ko'rsatuvlaridan tashqari, dastlabki tushuntirish xatlari, hodisa sodir bo'lgan joyni ko'zdan kechirish bayonnomasi, chizma va fotosuratlar, tushuntirish xatlari, jabrlanuvchi va guvohlarning ko'rsatuvlari, ekspertiza xulosalari hamda dastlabki tergov davomida to'plangan boshqa dalil va hujjatlar bilan to'liq o'z tasdig'ini topdi.

Dastlabki tergov organi tomonidan sudlanuvchi R.Haqberdiyevning jinoiy harakatlari, ya'ni xizmat vazifasini bajarayotgan hokimiyat vakilining qonuniy faoliyatiga yoki fuqaroviy burchini bajarayotgan shaxsga qanday shaklda bo'lmasin o'zining xizmat vazifasini bajarish yoki fuqaroviy burchini bajarishdan voz kechishga, shuningdek qonunga xilof harakatlar sodir etishga majbur qilishda ifodalangan harakatlari O'zbekiston Respublikasi Jinoyat Kodeksi 219-moddasining 2-qismi bilan noto'g'ri kvalifikatsiya qilingan.

Qonun mazmuniga ko'ra, JK 219-moddasining 2-qismida javobgarlik xizmat vazifasini bajarayotgan hokimiyat vakilining qonuniy faoliyatiga yoki fuqaroviy burchini bajarayotgan shaxslarni qanday shaklda bo'lmasin, o'zining xizmat vazifasini bajarish yoki fuqaroviy burchini bajarishdan voz kechishga, shuningdek, qonunga xilof harakatlar sodir etishga majbur qilgan shaxs javobgarlikka tortiladi.

Majburlash - bu hokimiyat vakili yoki fuqarolik burchini bajarayotgan shaxsga nisbatan ularni o'z majburiyatlarini bajarishdan bosh tortish yoki



majburlovchi shaxs foydasiga noqonuniy harakatlar sodir etishga erishish maqsadida jismoniy yoki ruhiy ta'sir etish. Qarshilik ko'rsatishda qo'llaniladigan jismoniy majburlashdan farqli ravishda majburlash vaqtida qo'llaniladigan kuch ishlatish boshqa maqsadni ko'zlaydi.

Majburlash vaqtida qo'llaniladigan jismoniy zo'rlik ishlatish deganda, jismoniy azob beradigan hamda jabrlanuvchining irodasiga xilof ravishda uning jismoniy erkinligini cheklaydigan harakatlar sodir etish, shuningdek, urish, do'pposlash va boshqa harakatlar orqali shaxs badaniga o'rtacha og'irlikdagi shikast yetkazish tushuniladi.

Ruhiy majburlash deganda, aybdor tomonidan so'z yoki o'zining niyatini boshqacha shaklda ifodalash orqali hokimiyat vakili yoki o'zining fuqarolik burchini bajarayotgan shaxsga ma'naviy zarar yetkazish, uning qonuniy huquq va manfaatlariga zarar yetkazish tushuniladi.

Sudlanuvchi R.Haqberdiyevning harakatlari hokimiyat vakili profilaktika inspektorining qonuniy faoliyatiga faol qarshilik ko'rsatishga qaratilgan bo'lib, u hokimiyat vakilini qanday shaklda bo'lmasin o'zining xizmat vazifasini bajarishdan voz kechishga majbur qilmagan.

Bu holat sud majlisida ham o'z tasdig'ini topdi.

Sudlanuvchi R.Haqberdiyevning o'z xizmat vazifasini bajarayotgan hokimiyat vakilini haqorat qilishdagi harakati faol qarshilik ko'rsatishining bir shakli bo'lib, bu harakat O'zbekiston Respublikasi JKning 219-moddasi bilan qamrab olinadi.

Shu sababli sud, sudlanuvchi R.Haqberdiyevning uning jinoiy harakatini JK 219-moddasining 2-qismidan JK 219-moddasining 1-qismiga qayta kvalifikatsiya qilishni lozim deb hisoblaydi.

Sud O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumining 2014 yil 23 maydagi "Sud hukmi to'g'risida"gi 7-sonli Qarorining 26-bandida "Sudlanuvchi tomonidan sodir etilgan bir jinoyat, jinoyat qonunining bir necha moddalari bilan xato tavsiflanganda yoki bir necha sodir etilgan jinoyatlarini jinoyat qonunining og'irroq jazoni taqozo qiluvchi birgina moddasi bilan tavsiflash o'rniga asossiz ravishda jinoyat qonuni bir moddasining bir necha qismlari bilan tavsiflanganda, sud hukmning tavsif qismida sudlanuvchiga xato qo'yilgan JKning moddasi (moddasi qismi yoki bandi)ni chiqarib tashlash to'g'risida ham tegishli asoslar keltirgan holda ko'rsatib o'tishi yetarli" deb qayd etilganligini hisobga olib, ayblovdan chiqarilgan moddani hukmning qaror qismida ko'rsatmaslikni lozim deb hisoblaydi.

O'zbekiston Respublikasi JPK 468-moddasiga muvofiq, ayblov hukmining qaror qismida jinoyat kodeksining sudlanuvchining aybli deb e'tirof etilishiga asos bo'lgan moddasi (moddaning qismi, bandi) ko'rsatilishi lozim.

Sud yuqoridagi qonun talabiga asosan sud hukmining tavsif qismida sudlanuvchi R.Haqberdiyevning jinoiy qilmishi qayta kvalifikatsiya qilinganlik holati ko'rsatilganligini yetarli deb hisoblab, hukmning qaror qismida mazkur



holatni ko'rsatmaslikni lozim deb hisoblaydi.

O'zbekiston Respublikasi JK 13-moddasiga muvofiq, qilmishning jinoiyligi va jazoga sazovorligi ana shu qilmish sodir etilgan vaqtda amalda bo'lgan qonun bilan belgilanadi.

Qilmishning jinoiyligini bekor qiladigan, jazoni yengillashtiradigan yoki shaxsning ahvolini boshqacha tarzda yaxshilaydigan qonun orqaga qaytish kuchiga ega, ya'ni ushbu qonun kuchga kirgunga qadar tegishli jinoiy qilmish sodir etgan shaxslarga, shu jumladan jazoni o'tayotgan yoki o'tab bo'lgan shaxslarga nisbatan, agar ular hali sudlangan hisoblansalar, tatbiq etiladi.

O'zbekiston Respublikasi JK 219-moddasining 1-qismi sanksiyasidagi jazolar O'zbekiston Respublikasining 2021 yil 4 oktabrdagi O'RQ-719-sonli Qonuni tahririda kuchaytirilgan.

Sud yuqoridagi qonun talabidan kelib chiqqan holda sudlanuvchi R.Haqberdiyevning jinoiy harakati O'zbekiston Respublikasi JK 219-moddasining 1-qismi sanksiyasida nazarda tutilgan jazolar kuchaytirilguniga qadar sodir etilganligi sababli unga ushbu qonun kuchga kirgunga qadar bo'lgan sanksiya doirasida jazo tayinlashni lozim deb hisoblaydi.

Sud sudlanuvchi R.Haqberdiyev o'z xizmat vazifasini bajarayotgan hokimiyat vakilining qonuniy faoliyatiga faol qarshilik ko'rsatishda ifodalangan g'ayriqonuniy harakati bilan O'zbekiston Respublikasi JK 219-moddasining 1-qismida nazarda tutilgan jinoyatni sodir qilgan deb topdi.

Sud R.Haqberdiyevning aybiga to'liq iqrorligini, qilmishidan pushaymonligini, ilgari sudlanmaganligini, jabrlanuvchining da'vosi yo'qligini jazoni yengillashtiruvchi holatlar deb, jinoyatni mast holda sodir etganligini jazoni og'irlashtiruvchi holat deb hisoblaydi.

O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumining 2006 yil 3 fevraldagi "Sudlar tomonidan jinoyat uchun jazo tayinlash amaliyoti to'g'risida"gi 1-sonli qarorining 26-bandida "Ozodlikdan mahrum qilish jazo tariqasida, odatda, og'ir va o'ta og'ir jinoyatlar sodir etgan shaxslarga, alohida hollarda esa, sudlanuvchining shaxsini inobatga olgan holda - ijtimoiy xavfi katta bo'lmagan va uncha og'ir bo'lmagan jinoyatlarni sodir qilgan shaxslarga nisbatan, agar bunday shaxslarni jamiyatdan ajratmagan holda axloqan tuzatishning imkoni bo'lmasa, qo'llaniladi. Ushbu jazo turini qo'llash sabablari hukmda asoslantirilishi shart" deb tushuntirish berilgan.

Sud yuqorida keltirilgan Oliy sudi Plenumi qarori tushuntirishiga rioya qilgan holda sudlanuvchi R.Haqberdiyev ijtimoiy xavfi katta bo'lmagan jinoyat sodir etgan bo'lsada, o'z xizmat vazifasini bajarayotgan hokimiyat vakilining qonuniy faoliyatiga faol qarshilik ko'rsatganligini, jinoyat sodir etish usulining ijtimoiy xavfliligi yuqoriligini inobatga olib, uni jamiyatdan ajratmagan holda axloqan tuzatishning imkoni yo'q deb hisoblab, qilmishi kvalifikatsiya qilingan modda sanksiyasida nazarda tutilgan jazolardan ozodlikdan mahrum qilish jazosi tayinlashni lozim topdi.



O'zbekiston Respublikasi JK 50-moddasi 7-qismining "a" bandi talabiga ko'ra, ozodlikdan mahrum etishga hukm qilinayotgan erkaklarga nisbatan ijtimoiy xavfi katta bo'lmagan jinoyati, ehtiyotsizlik oqibatida sodir etilgan jinoyati uchun va qasddan uncha og'ir bo'lmagan jinoyat sodir etganlik uchun ozodlikdan mahrum etishga hukm qilinayotganlarga nisbatan jazoni manzil-koloniyalarda o'tash tayinlanadi deb belgilab qo'yilgan.

Sud sudlanuvchi R.Haqberdiyevga tayinlanayotgan ozodlikdan mahrum qilish jazosini manzil-koloniyalarda o'tashni belgilashni lozim deb hisoblaydi.

Shuningdek, jabrlanuvchi M.Qoriyevning sudlanuvchi R.Haqberdiyevga nisbatan da'vosi yo'qligini qayd etishni, jabrlanuvchiga jinoyat natijasida yetkazilgan boshqa zararlarni undirish masalasida kelgusida nizo kelib chiqsa fuqarolik tartibida sudga murojaat qilishlari mumkinligi tushuntirishni va shunday huquqlari ochiqda qoldirishni lozim topdi.

O'zbekiston Respublikasi JPKning 454-457, 460, 462, 463, 465-468, 471-473-moddalariga amal qilib, sud

H U K M Q I L A D I:

Sudlanuvchi Haqberdiyev Raufjon Murodulloyevich - O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksi 219-moddasining 1-qismida nazarda tutilgan jinoyatni sodir etganlikda aybli deb topilsin.

Sudlanuvchi Haqberdiyev Raufjon Murodulloyevich - O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksi 219-moddasining 1-qismi bilan 8 (sakkiz) oy ozodlikdan mahrum qilish jazosi tayinlansin.

Jazo - manzil tartibli koloniyalarida o'tattirilsin.

Jazo muddati 2021 yil 27 avgust kundan boshlab hisoblansin.

Jabrlanuvchi M.Qoriyevning sudlanuvchi R.Haqberdiyevga nisbatan da'vosi yo'qligi qayd etilsin.

Jabrlanuvchiga jinoyat natijasida yetkazilgan boshqa zararlarni undirish masalasida kelgusida nizo kelib chiqsa fuqarolik tartibida sudga murojaat qilishlari mumkinligi tushuntirilsin va shunday huquqlari ochiqda qoldirilsin.

Hukmdan norozi tomon, hukm e'lon qilingan kundan, sudlanuvchi va jabrlanuvchi esa hukm nusxasini olgan kundan boshlab, yigirma sutka ichida shu sud orqali Qashqadaryo viloyat sudi jinoyat ishlari bo'yicha sudlov hay'atining apellyatsiya instansiyasiga apellyatsiya tartibida shikoyat berishga, prokuror esa protest bildirishga haqlidirlar.

Raislik qiluvchi:

Sh.Eshimov

